

## MUQIMIY SATIRALARIDAGI MAZMUN VA MOHIYATLARINING TASNIFI

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mamayusupova Shahina Ulug’bek qizi  
Tel: +998993032770  
[Shahinamamayusupova28@gmail.com](mailto:Shahinamamayusupova28@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Muhammad Aminxo’ja Muqimiy ijodiga ijtimoiy iqtisodiy qarashlar mavjud. Uning hajiviyligi „Tanobchilar“ kabi satirasidagi aholining qiyinchilik davriyu, amaldorlarning aksariyat holati qarindoshlar tomonidan bo’lgani va ularning barcha kirdikorlarini bitib ketganligi yanada yoritilgan. Muqimiyning hayot tarzi qiyinchiliklari haqida bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** She’riyat, adabiyot, kirdikorlik, hissiyot, odmi, davr, tanob, o’lchov, qiyinchilik.

She’riyat, asarlar, adabiyot bularning barchasi hayotimiz davomiyligi haqiqati uchun zarurdir. Aholining ijtimoiy rivojlanishida ham adabiyotning o’rnini beqiyosdir. Taqsinga sazovor, ibratli hayot yo’liga ega bo’lgan, ma’lum davrda jamiyatning shakllanishiga o’zining katta hissani qo’sha olgan va xalqning qalbida chuqur joy olgan adiblardan biri Muhammad Aminxo’ja Muqimiy hisoblanadi. Muhammad Aminxo’ja Muqimiy buyuk adiblardan biri bo’lib, ibratli hayot yo’lini bosib o’tgan. U o’z asarlarida nafaqat badiiy talqinni yuzaga keltirgan, balki bugungi kun avlodni uchun o’rnak bo’la oladigan iqtisodiy qarashlarni va davlat boshqaruvi to‘g’risida o’z fiklarini bildirgan. Muqimiy moddiy emas, balki ma’naviy boy bo’lgan insonlardan biri bo’lgan. Agar uning shaxsiy hayot yo’liga e’tibor qaratilsa, undan o’rnak bo’la oladigan hayot tarzini o’rganish mumkin. Muqimiy asarlarini o’rganish asosida shu davrda mamlakatdagi iqtisodiy holatni kuzatish va tahlil qilish mumkin. Asarlarni o’rganish asosida xatto bugungi kunda ham amaliyotga qo’llash mumkin bo’lgan iqtisodiy jihatlarni ko’rish mumkin. Bundan tashqari Muqimiy asarlarida rahbarlarni shaxsiyati va ulardan xalq talab qilayotgan muhim omillarni keltirib o’tgan. Bu davr og’ir davr bo’lishiga qaramasdan, Muqimiy o’z asarlarida qo’ruv hissalarini yo’qotgan holda boshqaruv tizimi va mamlakatda soliq tizimini juda kuchli tanqid qila olgan. Bundan tashqari, asarlardan shu davrda mamlakatning geografik holati va hududlarni ijtimoiy holatini o’rganish mumkin. Aholi turmush darajasi ham asarlarda keltirilib o’tilgan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiy ijoni o’raganish va uning keng ommaga targ’ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.<sup>1</sup>

Muqimiyning „Tanobchilar“ hajiviyligi satirasidan:

O’n ikki oyda keladur bir tanob,  
O’zgalarga rohat-u menga azob.  
Sulton Ali xo’ja, Hakimjon ikav  
Bir xotun birisi bo’ldi kuyav.

<sup>1</sup> <https://e-journal.uz/2021/04/08/muqimiy-asarlaridaaholining-ijtimoiy-iqtisodiy-hayoti-tasviri/>

Har yilgi yer solig'i uchun keladigan mutasaddilar uchun soliq vaqt rohat, sababi ular yer o'lchamlarini qo'shib yolg'on tarzida aytulgani haqida keltirilgan. Shu sababli bir necha aholi ya'ni dehqonlarning qilgan mehnatlari uchun sof foydani ola olmagan. Bundan tashqari amaldorlarning aksariyat holati ham qon qarindoshlardan tashkil topgan. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'sha davr kirdikorlariyu, xalqning qiyinchilik ostida qolgan vaqtlarini mana shunday satiralarida bayon bergan.

Shunindek u huddi shu asarida:

Xoh tanobingni du chandon qilay

Xoh karam birla boshingni silay

Ya'ni o'ziga bo'ysinmagan xalqni tanobini ya'ni yerining o'lchamini ko'proq ko'rsatganligi ham o'sha davrning kirdikorliklaridandur.

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,

Bachchataloq qishloqilarni (uray).

Ushbu misralardan shuni alglash joziki, Muqimiy o'sha davr aholisining ham ma'nан ham jismonan zulm ostida qolgan.

Muqimiy asarlari tahriri natijasida shoir asarlari nashrlarida ko'plab matniy tafovutlar yuzaga kelgan. Bu esa asar talqiniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Muqimiying "Sayohatnomasi" asari o'z mohiyatidan uzoqlashtirilib talqin etilganligi, "Hajvi Bektur", "Darig'o mulkimiz" hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari yangicha mulohaza yuritish, muhim umumlashma xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misralari qayta yozilgan "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur" sarlavhali she'ri kabi asarlar Muqimiy asarlari nashrida ko'plab uchrashini ta'kidlash kerak. Shoirning manbalardan yangi aniqlangan diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g'oyalarning badiiy talqiniga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir she'rlar mazmuniga zulm va bid'atning ofat manbai ekanligi, adolatni ulug'lash kabi fikrlarini singdirib yuborgan. Muqimiy haqida ma'lumot beruvchi ko'plab manbalar ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi haqida teranroq mulohaza yuritishga undaydi. Shu bois shoirning yangi topilgan ijod namunalarini tadqiq etish zarur. Muqimiy yashagan davr vatanimiz tarixida ko'plab ijtimoiy ziddiyatlarga boy bo'lgan davrdir. Shu jihatdan, shoir adabiyestetik dunyosini, muhit va jamiyatga munosabatini o'rganishda uning yangi topilgan she'rlari tahlili ilmiy qimmatga ega.<sup>2</sup>

Taassufki, Muqimiydek imon-e'tiqodli shoirning diniy arxonlarga, xususan, ro'zaga, hajga, toat-ibodatga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi aslo mumkin emas. Ayni shu bayt xususida adabiyotshunos Ochilov quydagicha mulohaza bildiradi: "Bu baytni tasavvufdan ajratib olib, talqin qilish sira ham mumkin emas. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida zohid ishq-u ma'rifatdan bexabar kishi sifatida tasvirlanadi. U faqat toat-ibodat bilan jannat rohatiga noil bo'lishnigina xohlaydi. Sufiyning maqsadi esa Ollohnning o'zi: unda jannat muhabbati-yu jahannam qo'rquvi yo'q. Agar Xudo jamolini ko'rsatsa, unga jahannam jannatdan afzal, aksincha, ilohiy husinka vosil bo'lmasa, jannat do'zaxdan ham battar. Shuning uchun ham bir qiyo

<sup>2</sup> Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili

boqib, zohidning qalbiga o‘t yoq, to u ming yilgi zuhdidan kechib, ishq ko‘yiga kirsin deydi”<sup>3</sup>

Taqsinga sazovor, ibratli hayot yo‘liga ega bo‘lgan, ma’lum davrda jamiyatning shakllanishiga o‘zining katta hissani qo‘sha olgan va xalqning qalbida chukur joy olgan adiblardan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy buyuk adiblardan biri bo‘lib, ibratli hayot yo‘lini bosib o‘tgan. U o‘z asarlarida nafaqat badiiy talqinni yuzaga keltirgan, balki bugungi kun avlodи uchun o‘rnak bo‘la oladigan iqtisodiy qarashlarni va davlat boshqaruvi to‘g‘risida o‘z fiklarini bildirgan. Muqimiy moddiy emas, balki ma’naviy boy bo‘lgan insonlardan biri bo‘lgan. Agar uning shaxsiy hayot yo‘liga e‘tibor qaratilsa, undan o‘rnak bo‘la oladigan hayot tarzini o‘rganish mumkin. Muqimiy asarlarini o‘rganish asosida shu davrda mamlakatdagi iqtisodiy holatni kuzatish va tahlil qilish mumkin. Asarlarni o‘rganish asosida xatto bugungi kunda ham amaliyotga qo‘llash mumkin bo‘gan iqtisodiy jihatlarni ko‘rish mumkin. Bundan tashqari Muqimiy asarlarida rahbarlarni shaxsiyati va ulardan xalq talab qilayotgan muhim omillarni keltirib o‘tgan. Bu davr og‘ir davr bo‘lishiga qaramasdan, Muqimiy o‘z asarlarida qo‘rmasdan boshqaruv tizimi va mamlakatda soliq tizimini juda kuchli tanqid qila olgan. Bundan tashqari asarlardan shu davrda mamlakatning geografik holati va hududlarni ijtimoiy holatini o‘rganish mumkin. Aholi turmush darajasi ham asarlarda keltirilib o‘tilgan. Shundan kelib chiqqan holda Muqimiy ijoni o‘raganish va uning keng ommaga targ‘ib qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.<sup>4</sup>

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning garchi hayot yo‘li og‘ir bo‘lsada ijoddan to‘xmagan adib hisoblanadi. O‘scha davrni to‘laqonlicha tasvirlagan va ijodini qiziqarliroq yaratish maqsadida hajviyotga ham katta e‘tibor qaratganligi taqsinga sazovordir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G‘afur G‘ulom „Boburiynoma”
2. <https://e-journal.uz/2021/04/08/muqimiy-asarlaridaaholining-ijtimoiy-iqtisodiy-hayoti-tasviri/>
3. Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili
4. Ochilov 2009, 32].Muqimiy
5. Avazov Nuriddin - MUQIMIY ASARLARIDA AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TASVIRI

---

<sup>3</sup> [Ochilov 2009, 32].Muqimiy

<sup>4</sup> Avazov Nuriddin MUQIMIY ASARLARIDA AHOLINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI TASVIRI